




Buxoro viloyati Romitan tumani xalq ta'limi bo'limi
METODIKA KABINETI

1-umumta'lim maktabi
boshlang'ich sinflar
uslub birlashmasi

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Murodova Surayyo Alimovnaning
1-soatlik noan'anaviy
ochiq dars ishlashmasi



ROMITAN - 2013 yil

Mavzu: Fe'l so'z turkumi.

Mustahkamlash.

Ta'limiy maqsad: O'quvchilarning fe'l so'z turkumi, uning so'roqlari, zamonlari, tuslanishi haqidagi ko'nikma – malakalarni o'zlashtirish.

Tarbiyaviy maqsad: Ajdodlarimiz shaxsi asosida o'quvchilarni dovyurak, kuchli sog'lom hamda ijodkor qilib tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarda o'z buyumlarini toza, saranjom –sarishta saqlash, asrab-avaylash ko'nikmasini shakllantirib borish.

DTS: Fe'l zamonlari, fe'l yasovchi qo'shimchalar, fe'llarning shaxs- son bilan tuslanishini bilish.

DARS NING TURI: «O'yla ,izla, top» o'yin musobaqa darsi.

DARS TIPI: Aralash.

QO'LLANILADIGAN INTERFAOL USULLAR: Klaster, xotira mashqi, test sinovi, munozara,

Dars jihozi: Darslik, ko'rgazmali qurollar, magnitofon, kodoskop, test topshiriqlari, rangli qog'oz, yelim, qaychi,

Darsning borishi:

Dars ona tili haqidagi she'r bilan boshlanadi.

Alla bo'lib jaranglagan
Ona tilim jonu dilim
Jahon bo'ylab buyuk Temur
Dovrug'ini solgan tilim
Mir Alisher bobomlardan
Meros bo'lib qolgan tilim
Bobur Mirzo she'rlaridan
Rang va qo'yosh olgan tilim
Shunday tildan tonar bo'lsam
Qiyima - qiyima bo'lsin tilim

Salomlashiladi.

O'qituvchi: O'quvchilar soglommisiz,
Hozir darsga tayyormisiz?

O'quvchilar: Ustoz bizlar soglommiz,
Darsga har dam tayyormiz.

O'qituvchi: Sinfda kim navbatchi!
Yangilikni bersinchi.

Navbatchi: Sinfda men navbatchi,
Atrofga bir qaraychi.
Parta, stollar toza
Eshik oynalar toza
Darsimiz yozuv-chizuv.

Fan yo'lidir nur
Sinfda o'ttiz bola
Biri gulu biri lola
Bizlar yaxshi bolamiz
Darslarga shay turamiz
O'lkamizdadir, bahor
Suvga to'ladur anhor
Ob havo ochiq bugun
Ochiq darsdir bu kun
Ochiq darsga marhabo
Keling do'stlar boshlaymiz

O'qituvchi: Barakalla! Demak sizlarning aytgan she'rlaringizdan bilinib turibdiki, hozir sabogimiz ona – tili va hamma darsga tayyor!

Bahor fasli hakida suhbat.

Guruhlarga bo'lish: Bahorda bo'ladigan tabiat hodisalariga qarab guruhlariga bo'lish. (Shamol, yomg'ir, do'l so'zlari yozilgan qog'ozchalar teskari holatda qo'yiladi. Kim qaysi yozuvli qogozchalarni olsa, sherigingizni toping deb buyruq berilishi bilan, o'sha holatni harakat orqali bajarib, tovush chiqarmasdan sherigini topadi.)

Guruhlar nomlanishi:

1 – guruh O'tgan zamon

2 – guruh Hozirgi zamon

3 – guruh Kelasi zamon

Darsning oltin qoidalari: Intizomli bo'lish, o'zaro hurmat, erkin fikrlash, faol qatnashish, izlanuvchanlik, vaqtdan unumli foydalanish.

Darsning shartlari:

- 1- shart : Ozligini tanishtirish
- 2-shart: Yelpig'ich.
- 3-shart: So'z tuzish.
- 4-shart: Test.
- 5 shart: Xotira o'yini.

2009 – yil Prezidentimiz tomonidan «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» deb e'lon qilinganligi munosabati bilan, qishloqlarga katta e'tibor qaratilyapti, bog'u rog'lar, maktab, kollej, litseylar, yangi –yangi uylar qurilyapti. Bugungi darsimizda bizlar ham xayolan bu ishlarga ishtirok etamiz va o'zimiz xoxlagandek qilib uy quramiz. Har bir shart bajarilganda uyning bir qismini qurib olamiz.

Bilamizki uyni qurishda birinchi poydevor qo'yiladi.

Buning uchun sizlar birinchi shartga javob berishingiz lozim.

1-guruh: O'tgan zamon

1- o'quvchi: O'tgan zamon fe'li, nutq so'zlab turgan paytdan oldin bajarilgan yoki bajarilmagan harakatni bildiradi.

2- o'quvchi: O'tgan zamon fe'li, nima qildi? nima qilgan? kabi so'roqlarga javob bo'ladi.

3-o'quvchi: O'tgan zamon fe'li qo'shimchalari – di, - gan

4-o'quvchi: O'tgan zamon fe'li k tovushi bilan tugagan fellarga – kan shaklida qo'shiladi.

5- o'quvchi : Masalan: Cho'k – cho'kkan.

6- o'quvchi : O'tgan zamon qo'shimchasi – k tovushi bilan tugagan fellarga - kan shaklida qo'shiladi.

7- o'quvchi : Masalan: kirk – kirkkan.

8- o'quvchi : Maktab so'zi o'zbek tiliga arab tilidan kirib kelgan. Bu gapda fe'l **kirib kelgan**. Nima qilgan? Kirib kelgan, qo'shimchasi – gan.

O'tgan zamonda

Shu tariqa uch guruh o'quvchilari o'zlarini tanishtiradilar va tanishtirgan o'quvchi uyning poydevorini rangli qogozlardan qirqib oq varaqqa joylashtiradi.




- Tilimizda nechta shaxs bor?
- Tuslanish nima? Shaxs – son qo'shimchalarini egalik qo'shimchalaridan qanday farqlaymiz?

Ikkinchi shart: Yelpig'ich hosil qilish. X

Har bir guruh o'z zamonini shaxs – son qo'shimchalari bilan ifodalaydi.

1 shaxs	2 shaxs	3 shaxs
Yozdim	Ishlayapsan	O'qimoqchi
O'ynadik	O'qiyapmiz	Bo'yamoqchi
Aytdim	Pishiryapmiz	Ishlamoqchi
Qatnashdik	O'ynayapsan	Chizmoqchilar
Gapirdik	Ulguryapmiz	Yugurmoqchi


Savollarga javob yozgan o'quvchi uz uyining devorini rangli qogozdan qirqib yopishtiradi.



3 shart: Fe'l yasovchi qo'shimchalar nechta? Va qaysilar?

Bu shartda o'quvchilar fe'l yasovchi qo'shimchalardan qo'shib so'z tuzadilar va aytadilar. Masalan: ish – ishla, shod – shodlan, viz – vizilla, so'z – so'zla va xokazo.

So'z aytgan o'quvchi uyning tomini quradi.



4 shart: TEST

O'quvchilarga test tarqatib chiqiladi va ular testni yechgunlariga qadar raqs ijro etiladi.

1. 1-shaxs ko'plikdagi fe'llar berilgan qatorni belgilang.

- A) o'qidik, yozdik, ko'rdilar
- B) bordik, ko'ryapsiz, o'qidim
- V) kuldik, ko'rdik, yozamiz

2. 1-shaxs bajargan harakatni bildirgan fe'l qatnashgan gapni aniqlang.

- A) Men anhorga cho'milish uchun bordim.

B) Axmad buvisini ko'rib quvondi.

V) Siz qachon teatrga borasiz?

3. 2009 yil qanday nomlanadi?

A) Yoshlar yili

B) Obod mahallla yili

V) Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili


4. 2008-2009 o'quv yili qanday nomlanadi?

A) Ta'lim samaradorligini oshirish o'quv yili

B) Ta'lim muassasalarida ijodiy muhitni rivojlantirish o'quv yili

V) Iqtisodiy ta'lim va moliyaviy savodxonlikni oshirish o'quv yili

Testni yechib, to'g'ri javob topgan o'quvchilar uyning derazasini o'rnatadilar.



5-shart: «Xotira» o'yini.


«Xotira» o'yinini o'tkazish uchun Kodoskopdan foydalaniladi.

Monitorda bo'lishli fe'llar yozilgan bo'ladi. O'quvchilarga ko'rsatiladi va monitor o'chirib qo'yiladi. O'quvchilar bu bo'lishli fe'llarni bo'lishsiz fe'llarga aylantirib yo'zishlari kerak bo'ladi.

Bo'lishli fe'llar:

Ekkan, gullaydi, izla, chiqdi, sinadi, kuzatyapman.

Bu shartni to'g'ri bajargan o'quvchilar uy eshigini o'rnatadilar. Uyni to'liq yasagan o'quvchilar «5» ball bilan baholanadilar.



Dars oxirida o'quvchilar bilimini sinash uchun BBB interfaol usuldan foydalaniladi.

Bilardim	Bilmoqchiman	Bilib oldim

O'quvchilar yayasagan uylarini bir-birlariga sovg'a qilishadi.

Uyga vazifa: bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar qatnashgan 4 ta gap yozib kelish